

"MUQANNA" "JALOLIDDIN MANGUBERDI" ASARIDA TARIXIY VA TO'QIMA OBRAZ

Ikramova Aziza Aminovna

*Buxoro davlat universiteti tayanch
doktoranti.*

Annotasiya: Ushbu maqola tarixiy mavzuga asoslangan bo'lib, o'zbek adabiyotida o'chmas iz qoldirgan mashhur "Muqanna" va "Jaloliddin Manguberdi" asarlarida tarixiy haqiqat va to'qima obrazlar tahlil qilinadi. Shu bilan birgalikda ikki dramada obrazlarning o'ziga xosligi va ularning asardagi o'rne, shoirning obrazlar bilan mohirona ishlashi va ularning uyg'unligi misollar orqali talqin qilinadi. II jahon urushi yillarida vatanparvarlik, jasorat ko'rsatish kabi qahramonliklarga muhtoj bo'lgan bir paytda yaratilgan "Muqanna" asari, hali hanuz o'z mashhurligini yoqotgani yo'q. Ushbu maqolada asarda qatnashgan qahramonlar harakati, kechinmalari, voqeaga kutilmagan burilishlar sodir etishlari tahlil etiladi. "Jaloliddin Manguberdi" asarida esa uning qaxramonligi va uning atrofidagi qolgan obrazlar she'riy tarzda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tarixiy-jangoma, zolim, dahriy, makr va nayrang, oq kiyimlilar, otashparast, personaj, dialog, badiiy to'qima, she'riy drama.

THE COMBINATION OF HISTORICAL AND FABRIC IMAGES IN THE WORK OF "MUQANNA" AND "JALOLIDDIN MANGUBERDI"

Ikramova Aziza Aminovna

Basic doctoral student of Bukhara State University

Annotation: This article is based on a historical theme and analyzes the historical truth and fabric images in the famous works "Muqanna" and "Jaloliddin Manguberdi", which have put an indelible mark on Uzbek literature. At the same time, the originality of the characters in the two dramas and their place in the work, the poet's skillful work with the characters and their harmony are interpreted through examples. It was created during World War II, when heroism was needed, such as patriotism and courage, and nowadays Muqanna has not lost its popularity. This article analyzes the actions, experiences, and unexpected

twists and turns of the protagonists in the play. Jaloliddin Manguberdi's heroism and deeds people around him have been described by poems too.

Keywords: historical-war, tyrant, atheist, cunning and deceit, white-clad, fireman, character, dialogue, artistic texture, poetic drama.

СОЧЕТАНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ И ВЫДУМАННЫХ ОБРАЗОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ «МУКАННА» И «ДЖАЛОЛИДДИН МАНГУБЕРДИ»

Икрамова Азиза Аминовна

*Базовый докторант Бухарского
государственного университета.*

Аннотация: Данная статья основана на исторической теме и анализирует историческую правду и выдуманных образов в известных произведениях «Муканна» и «Джалолiddин Мангуберди», оставивших неизгладимый след в узбекской литературе. При этом на примерах трактуется своеобразие образов в двух драмах и их место в произведении, искусная работа поэта с образами и их гармония. Произведения «Муканна» созданный во времена Второй мировой войны, когда требовался героизм, патриотизм и отвага, и вто же время оно не утратила своей популярности. В данной статье анализируются действия, переживания и неожиданные повороты главных героев пьесы.

Джалолiddин Мангуберди представляет собой поэтический анализ его героизма и окружающих образов.

Ключевые слова: военно-исторический, тиран, безбожник, хитрость и обман, одетый в белое, пожарный, персонаж, диалог, художественная фактура, поэтическая драма.

II jahon urushi davrida o'zbek adabiyotida ham aynan shu davrda vatanparvarlik, tarixiy-jangnoma, buyuk ajdodlarimiz xotirasi va qahramonligi haqida hikoya qiluvchi "Jaloliddin Manguberdi", "Alisher Navoiy", "Muqanna", "Mahmud Torobiy" singari sahna asarlari yaratildi. Bunday asarlar orqali jangchilarning jangovar qobiliyatiga estetik ta'sir qilish, yosh avlodni har qanday urushga qarshi chiqish va Vatan ozodligi uchun kurashga chorlash ijodkorlarning asosiy vazifasiga aylandi. Badiiy pafosi, qiziqarli syujeti va g'oyaviy falsafasi jihatidan bu asarlar orasida

“Muqanna” va “Jaloliddin Manguberdi” dramasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Hamid Olimjon (1909-1944)ning “Muqanna” dramasi tarixiy mavzuda bo’lib, 4 parda 8 ko’rinishdan iborat hamda II jahon urushining eng cho’qqina chiqqan kezlari, 1943-yilda yaratilgan. Ba’zi adabiyotshunoslarning fikricha, “Hamid Olimjonning «Muqanna» tragediyasi urush davrining ijtimoiy buyurtmasi asosida maydonga kelgan. Hamid Olimjon ushbu asarning markaziy qahramonlari — Muqanna, uning sevgilisi Guloyin va boshqa qahramonlar obrazlari orqali har bir mamlakatning mustaqilligi masalasi xalq taqdiri. shu xalqning ozodligi, farovonligi va kelajagi bilan bog’liq g’oyat muhim ijtimoiy va siyosiy masala ekanligini ko’rsatib bergan”³¹. Umuman olganda Muqanna va u rahbarlik qilgan “Oq kiyimlilar” qo’zg’oloni mavzu badiiy adabiyotimizga o’tgan XX asrning boshlarida kirib keldi. Bu masalaga oid Sadridin Ayniy, A.Yakubovskiy, T.Qodirova, P. Ravshanovlar muhim tadqiqotlarni amalga oshirishdi. Birin-ketin “Muqanna isyoni” ocherki (S.Ayniy), “Muqanna” dramasi (H. Olimjon), “Sanam tog’idagi gulxan” tarixiy qissasi (M.Toshpo’latov), “Muqanna” tarixiy risolasi (G’.Karimiy) dunyoga keldi. Shu bilan birga Muqanna va uning rahnamoligidagi xalq harakati to’g’risida jahon adabiyotshunosligida ham diqqatga sazovor ishlar dunyoga kelganini alohida ta’kidlash lozim. Xususan, eronlik ijodkor Said Nafisiy hamda mashhur argentinalik ijodkor Luis Borxes Muqanna to’g’risida hikoyalar yaratishgani adabiyotshunoslikka ma’lum³².

Muqanna yashagan davrda ham, undan keyingi davrdarda ham, hattoki Istiqlol yillarida ham bu tarixiy shaxsning tariximizdagi, tarixiy obraz sifatida badiiy adabiyotimizda ahamiyati to’g’risida turli xil bahslarni kuzatishimiz mumkin. O’zbekiston tarixi darsliklarida u milliy qahramon, ozodlik kurashi rahnamosi sifatida tasvirlansa, ayrim mutaxassislar unga nisbatan “zolim”, “firibgar”, “dahriy”, “makr va nayrang timsoli”³³ tavsiflarini qo’llashadi. Yurtimizning arablar tomonidan egallanishini tasvirlagan tarixchi Narshaxiy ham “Oq kiyimlilar” qo’zg’oloni tarixi yoritilgan o’rinlarda isyonchilar va ularning rahbariga nisbatan “islomning dushmani”, “Allohdan qaytgan” singari nisbatlarni

³¹ <https://qomus.info/encyclopedia/cat-h/hamid-olimjon-uz/>

³² Каримий Ф. Муқанна. Тошкент: “Абу-матбуот консалт”, 2011. Б.3

³³ Жабборов Р. Муқанна озолик курашчисими ёки золим фирибгар? <https://xabar.uz/uz/jamiyat/muqanna-ozodlik-kurashchisimi>

qo'llab, har bir Muqanna nomini keltirgan satrda uni "og'ziga tuproq"³⁴ deya haqoratlab o'tadi.

"Muqanna" tarixiy dramasi Hamid Olimjon ijodida alohida o'rin tutadi. Muallif asarning I parda 1-ko'rinishidagi voqealarni otashparast Otash va uning xonadoni orqali VIII asr oxiridagi Movarounnahrning iqtisodiy-siyosiy ahvoli, tub aholining yashash sharoiti haqida ma'lumot beradi. 2-pardada esa Feruz qurgan masjid tasviri orqali abbosiylarning xalifalikdagi siyosati, soliq tizimi va aholi majburiyatlari, islomni qabul qilgan yoki qilmagan fuqarolarga munosabat masalalari yoritilgan. II parda 3-ko'rinishda esa arab qo'mondoni Saidbattol xonadoni tasviri orqali Muqannaning xalq orasidagi hurmati, "Oq kiyimlilar" harakatining yuzaga kelish sabablari va qo'zg'olonchilarning maqsad-muddaolari yoritilgan bo'lsa, 4-ko'rinishda esa Feruz qurdirgan masjidda juma namozi paytida isyonning boshlanishi, qo'zg'olonchilarning ilk g'alabalari yuqori hissiy nuqtalarda tasvirlanadi. III parda 5-ko'rinishda Muqanna va qo'zg'olonchilarning qarorgohi bo'lmish Som qal'asi, u yerda Guloyin hamda Muqannaning nikoh to'ylari haqida gap borgan. IV parda 6-ko'rinishda yana Som tog'idagi janglar, uzoq davom etgan isyondan charchagan oddiy xalqning iztiroblari yoritilgan bo'lsa, 7-ko'rinishda Buxoro bo'sag'alaridan birida arab qo'shini va Muqanna tarafdorlari o'rtasidagi qonli janglar, Guloyinning qurbon bo'lish sahnalari aks ettirilgan. Yakunlovchi 8-ko'rinishda esa "Oq kiyimlilar" qo'zg'olonining mag'lubiyati, Muqannaning o'z joniga qasd qilishi xulosalangan.

Hamid Olimjon ushbu dramani yaratishdan oldin VIII asr Movarounnahrning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, aholining turmush tarzi, yurtimizning arab xalifaligi tomonidan bosib olinishi, "Oq kiyimlilar" isyoni to'g'risida hikoya qiluvchi muhim tarixiy manbalarni chuqur o'rganib chiqqanligini sezish qiyin emas. Jumladan, yozuvchi qo'zg'olonchilarning asosiy qarorgohi Kesh (Shahrisabz) yaqinidagi Som qal'asi bo'lganligini tasvirlar ekan, ushbu fakti barcha tarixiy manbalar ham dalillaydi³⁵. Hamid Olimjon "Muqanna" dramasida Otash, Guloyin, Gulobod, Feruz singari badiiy to'qima obrazlar bilan birga, isyonchilar rahbarlaridan bo'lgan Bog'iy, Xishriy, G'irdak singari tarixiy obrazlarni ham badiiy asarda gavdalantirgan. Buni X asrda yaratilgan "Buxoro tarixi" asaridagi quyidagi tarixiy fakt isbotlaydi: "Muqanna toifasining

³⁴ Наршахий. Бухоро тарихи. Тошкент: "Фан". 2011. Б.41

³⁵ Каримий Ф. Муқанна. Тошкент: "Абу-матбуот консалт", 2011. Б.4

kattalaridan buxorolik Hakim (ibn) Ahmad nomli bir kishi bo'lib, u bilan birga yana uchta lashkarboshi bor edi. Ulardan birining nomi Xashviy (Xishriy), ikkinchisining Bog'iy bo'lib, bu ikkovi Fuzayl ko'shkidan edilar. Uchinchisining nomi – G'irdak; u G'ijduvon qishlog'idan edi"³⁶. Asarda Poykand, Varaxsha singari tarixiy shaharlar, Tug'shoda, Qutayba singari tarixiy shaxslar nomlari sanab o'tiladi. Qolaversa, Hamid Olimjon drama so'ngida arablar qo'lga tushishni istamagan Muqanna o'zini yonib turgan olovga tashlab halok bo'lishini tasvirlaydi. Tarixiy manbalarda ham bu voqeilikka shunga o'xshash holat yoritilib, Muqanna o'zini qizib turgan tandirga tashlab o'lim topganligi ta'kidlanadi³⁷. Hamid Olimjonning "Muqanna" tarixiy dramasi o'ta ravon yozilgan bo'lib, unda og'ir hissiyotlar, murakkab sahnalarni kuzatmaymiz. Muallif barcha sahna asarlarida keng qo'llaniladigan remarkalardan o'ta kam foydalaniladi.

Tarixiy asarda o'tmish mavzusi qalamga olinar ekan, tabiiyki, o'sha davrda yashab o'tgan tarixiy shaxslar, ularning hayoti, tarixiy davr ijtimoiy hayotida tutgan o'rniga e'tibor qaratiladi. Natijada asar syujetida tarixiy obrazlar harakatlanadi. Qolaversa, badiiy asar yozuvchining ijodiy fantaziyasi, badiiy to'qimasi hosilasi sifatida ijodkorga tarixiy davr manzarasini o'ziga xos tasvirlash imkoniyatini beradi. Ushbu jarayonlarda tarixiy asar sahnasiga to'qima obrazlar ham harakatda namoyon bo'ladi. Har bitta tarixiy dramani yoki roman, qissani olamizmi – barchasida kamida bitta to'qima obraz uchraydi. Bunday mavzudagi asarlar jonli tarixdan guvohlik berar ekan, to'qima obrazning nega keragi bor? degan savol ham tug'ilishi mumkin. Asarni yozishdan maqsad kitobxonni o'sha davr bilan tanishtirish bo'lganida yozuvchi chizib berishi kerak bo'lgan ba'zi haqiqatlar yoki voqealar sodir bo'lishida tarixiy obrazlar bilan biga to'qima obrazlarning ham ahamiyati katta. E'tibor bersak, bunday obrazlar doimo personaj (bu atamani ma'nosidan kelib chiqqan holda adabiyotshunos Dilmurod Quronov barcha inson obrazlariga qo'llagan)³⁸, ya'ni elementar obraz vazifasida keladi va yozuvchi asar voqealari burilishiga sababchi bo'luvchi kichik detallarni uning yelkasiga yuklaydi. To'qima obrazlar quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

1. Asar voqeasini ikkinchi harakatga o'zgartirish.

³⁶ Наршахий. Бухоро тарихи. Тошкент: "Фан". 2011. Б.38

³⁷ Муҳаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи. Тошкент: "Шарқ", 2013. Б.37

³⁸ Quronov Dilmurod. Adabiyot nazariyasi asoslari. T – 2018, 99-b

2. Tarixiy qahramon xarakterini to'laqonli ifoda etishga ko'maklashish yoki ma'lum bir qirrasini ko'rsatib berish(ikkalasi o'rtasidagi dialoglar yoki harakatlar orqali bo'lishi mumkin).

3. Voqealar rivojini ta'minlash;

4. Tarixiy davr sharoitini aks ettirish.

Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasida ham Temur Malik va uning o'g'li Donishmand Chingizxonga asir olingan holatda yuz bergan dialogni olishimiz mumkin. Bunda Temur Malikning farzandi sifatida tasvir etilgan Donishmand to'qima obrazdir. U yurt uchun farzandini qurbon qilishga ham tayyor turadi. Temur Malik yurtga xiyonatkor bo'lishi evaziga tirik qolgandan ko'ra, o'g'li ham o'zi bilan birga o'lishini afzal ko'radi:

Chingizxon:

Ehtimol, senda bordur otalik mehri,
Ha, desang o'g'lingni omonda umri.

Temur Malik:

O'g'lim tirik qolsa, balki umrbod –
Meni la'nat birla aylasinmi yod.
Sharafdan ko'z yumib topilgan najot,
O'g'ridan sadaqa so'rashday uyot!³⁹

"Jaloliddin Manguberdi" dramasida devona cholning Jaloliddinni pichoqlashga kelayotgan Yaroqbek va Qadag'on no'yonning suhbatini eshitib qoladi. Keyin sultonning yoniga yugurib borib pichoqlanishiga bir bahya qolgan fursatda Yaroqbekning pichoqlanishi dramada voqealar rivojining yana davom etishiga sababchi bo'ladi ⁴⁰. Chunki bosh qahramon – Jaloliddin halok bo'lsa, asar voqealariga putur yetishi mumkin edi. Natijada tragediya yechimga kelgan bo'lardi.

Tarixiy asarlardagi to'qima obrazlar yozuvchining voqealar talqinini badiiy aks ettirish mahoratini ham ko'rsatib beradi. Asarlarda tarixiy va to'qima obrazlar birday yonma-yon tasvirlanadi. Biz tahlilga tortayotgan "Jaloliddin Manguberdi" dramasida ham har ikkala turdagi obrazlarning yorqin misolini ko'ramiz. Asarda Sulton Muhammad Xorazmshoh, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Chingizxon, Qadag'on no'yon, Jaloliddinning onasi, singlisi Sultonbegim, Nasaviy, Imom Shahobiddin Xevaqqiy, Sayfiddin Ag'roq, Muzaffar kabi obrazlar tarixiy real shaxslardir.

³⁹ Maqsud Shayxzoda. Jaloliddin Manguberdi. ("Dunyo boqiy" to'plamidan). T.: "Gafur G'ulom", 1988, 389-b

⁴⁰ O'sha manba, 358-364-betlar

Jaloliddin Manguberdi vatani uchun jonini fido qilishga ham tayyor, Vatani himoyasini oriyati deb biluvchi obrazdir. U erkinlikni nafas kabi zarur deb biladi. Toj-u taxtga ruju qo'ymagan adolatparvar shahzoda qiyofasida gavdalangan Jaloliddin xarakterini quyidagi satrlardan ham anglashimiz mumkin:

Kishi tug'ilmaydi boshda toj bilan,

Tug'ilar erklikka ehtiyoj bilan.

Boshimning tojidir onamga qasam ⁴¹.

Xorazmshoh Muhammad Alovuddin asarda mustaqil fikriga ega bo'lmagan, qo'rqqoq hukmdor qilib tasvirlanadi. Aslida ham taxtni qo'lida saqlab qolish niyati sababli ham Chingizxon hujum qilgann paytda noto'g'ri himoya usulidan foydalanib mamlakat inqiroziga sababchi bo'lgan edi. Dramada ham amir-u fuzalolar so'ziga kirgan qo'g'irchoq xon qiyofasini ko'ramiz. Tarixiy haqiqatda ham mamlakat Turkon xotun boshliq amaldorlar va xon tarafdorlari kabi ikki guruhga bo'lingan edi.

Sultonbegim obrazi tarixiy haqiqatga mos holda tasvirlangan qahramondir. Asar so'nggidagi izohlarda ham uning janglarda akasi bilan birga qatnashgani keltirib o'tilgan. Sultonbegim vatanga xiyonatni o'ziga xiyonat deb biladi. U Chingizxon bilan taxt uchun til biriktirgan erining yolg'onini o'zi fosh qiladi va uni kechirmaydi. Garchand ular o'rtasida muhabbat masalasi bo'lsa-da! U zeb-ziynatga e'tibor beruvchi oddiy ayollardan emas. Buni jangdan mag'lubiyat bilan qaytgan eriga aytilgan so'zlaridan anglaymiz:

Oh, koshki shunchalar ziynatdan ko'ra,

Keltirsang u yerdan bitta g'ishtpora.

Ne kerak Samarqand la'li, tillasi?

Rahmat derdim bo'lsa mo'g'ul kallasi ⁴².

Ona obrazida ham o'g'lini mardlikka chorlovchi, ishonch bildiruvchi haqiqiy timsol yaratilgan. Otasi qarshi bo'lgan og'liga tumor berib, uni olg'a qadam bosishga undaydi va asar so'nggida Jaloliddin oyog'iga kishan bo'lmaslik uchun ham o'zini daryoga tashlaydi. Tarixiy haqiqatda ham xuddi shunday holat yuz bergan, ammo Shayxzoda ona obraziga bunday qarorni yuklashidan maqsadi shunday mard o'g'lonni tarbiyalagan ayol qiyofasini kitobxon tasavvurida jonlantirish ,

⁴¹ Maqsud Shayxzoda. Jaloliddin Manguberdi. ("Dunyo boqiy" to'plamidan). T.: "Gafur G'ulom", 1988, 307-b

⁴² Maqsud Shayxzoda. Jaloliddin Manguberdi. ("Dunyo boqiy" to'plamidan). T.: "Gafur G'ulom", 1988, 336-b

Jaloliddinga erk, vatanparvarlik hislari onasidan o'tganlini va uning buyuk siymoligini isbotlash edi.

Chingizxon dushman taraf qilib tasvirlangan holda ezgulikdan yiroq, shafqatsiz, g'ayridin, hiyla-nayrangga usta qahramon qiyofasida gavdalanadi. Tinch yurtlarga nisbatan bosqinchilik siyosatini olib borgan bu tarixiy shaxsning butun maqsadi yer-mulk bo'lgan. Chingizxonning qanday insonligini SHoir qo'llagan quyidagi misralardan ham bilib olishimiz mumkin:

Muhabbat, muhabbat! Ahmoqona so'z,
Boshqa xotinlarda yo'qmi qosh va ko'z?
Muhabbat? Bu so'zni kimlar to'qigan,
Go'l shoir yozgan-u, tentak o'qigan ⁴³.

Badiiy to'qima obrazlardan biri bo'lgan Devona chol asar voqealarida muhim ahamiyat kasb etadi. Biz yuqorida aytib o'tganimiz drama syujetining keying harakatini aynan shu obraz belgilab bergan. Asarda biron askar yoki Jaloliddinga yaqin saroy odamiga ham qutqarish vazifasini yuklash mumkin edi, ammo Chol obrazi bilan Shayxzoda xalqining Jaloliddinga mehri, hurmati baland bo'lganligini tasvirlamoqchi bo'lgan bo'lishi mumkin. Xalqning Jaloliddin Manguberдини qo'llab quvvatlash sahnasi ham tarixiy munosabatlarga mos keladi. Xalq Jaloliddinning qahramonligiga doimo ishongan va uni o'ziga haqiqiy hukmdor deb bilgan.

Maqsud Shayxzodaning "Jaloliddin Manguberdi" dramasi misolida xuddi shunday badiiy to'qima voqealarga duch kelamiz. Ma'lumki, Jaloliddin Manguberdi hayoti haqida bizgacha to'liq yetib kelgan manbalardan biri bu SHahobiddin Muhammad an-Nasaviyning "Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti" asaridir. Tarixchi Nasaviy Manguberdi bilan bir davrda yashab, Xorazmshohlar saroyining tarixnavislaridan biri bo'lgan. U Jaloliddin Manguberdi va Chingizxon o'rtasida bo'lgan kurashlarning ham tirik guvohidir. M.Shayx zoda dramasi ham Nasaviyning tarixiy janglarni yozib borayotganining guvohi bo'lamiz. Tarixiy real asar va tarixiy-badiiy asarda voqealar qay tarzda bayon qilinganini tahlilga tortsak, yozuvchi qo'llagan badiiy to'qimalar yuzaga chiqadi va ayni paytda bu usul nega qo'llanganini ham bilib olamiz.

⁴³ Maqsud Shayxzoda. Jaloliddin Manguberdi. ("Dunyo boqiy" to'plamidan). T.: "Gafur G'ulom", 1988, 381-b

“Jaloliddin Manguberdi” dramasida voqealar bayoni Xorazmshoh Muhammad Alovuddin huzuridagi mashvaratdan boshlanadi va Chingizxonga qarshi kurash xususida gap boradi. Xorazmshoh dushman yo’lda kelguncha poyonsizdek tuyulgan cho’llarda halok bo’ladi deya yurtni tashlab ketish fikri to’nida bo’ladi, ammo Jaloliddin kurash qilmoqni afzal biladi. Ular o’rtasida mulozimlarning, Amir Badriddinning noto’g’ri yetkazilgan, Jaloliddin kurash bahona qo’shinni o’z qo’liga olib taxtni orzulamoqda, degan gapi tufayli nifoq kelib chiqadi va Xorazmshoh to’ng’ich og’il –Jaloliddin Manguberдини taxt vorisligidan chetlashtirib, hali yo’rgakda bo’lgan chaqaloq – o’zliq Qutbiddinni valiaxd qilib tayinlaydi. Ana shu yerda tarixiy haqiqatning badiiy to’qimaga evrilganini ko’ramiz. Birinchidan Xorazmshoh qochib ketish fikridan oldin ham bir qancha: shaharni devor bilan o’rash, qo’shinni mudofaa uchun Movarounnahr va Turkiston hududlariga bo’lib jang qilish kabilarni ham qo’llaydi. Ammo bub o’linishning asosiy sababini tarixchilar Sulton qo’shini juda katta bo’lgani sababli bir joyga jamlanib Sultonga qarshi davlat to’ntarishi yuz berishidan qo’rqqani uchun shunday qilgan, degan izohlar ham berishadi: “Sulton Muhammadning og’li Jaloliddin, Xo’jand hokimi Temur Malik singari sarkardalar harbiy kuchlarini asosiy nuqtalarga to’plab, dushmanga zarba berishni taklif etadilar. Biroq Sulton katta qo’shinni bir joyga to’plashdan qo’rqar edi. Sulton nazarida bir joyga to’plangan qo’shin uni taxtdan ag’darib tashlashi mumkin edi. Shuning uchun ham harbiy kengashda sulton o’z qo’shinlarini turli shaharlarga bo’lib yuborib, urushda mudofaa taktikasini qo’llashga qaror qiladi. Shu tariqa mamlakat katta xavf ostida qoldi”⁴⁴. Bu mudofaa usuli haqida Nasaviy ham keltirib o’tgan. Ikkinchi badiiy to’qima voqelik taxtni topshirish edi. Nasaviy asarida shunday bob mavjud: “Sultonning o’g’li Jaloliddin Manguberдини taxt vorisi etib belgilashi va Qutbiddin O’zlog’shohni taxt vorisligidan chetlatishi bayoni”. Taxt aslida Turkon Xotunning kuchi bilan kenja o’g’ilga teggan edi, ammo mamlakatga bostirib kelayotgan xavf tufayli Jaloliddinga topshirilgan: “... Men uchun ulardan qasosni faqat o’g’lim Jaloliddin olishi mumkin. Shu uchun, mana, uni taxtim vorisi etib tayinlamoqdaman...”⁴⁵. Qutbiddin O’zlog’shoh asarda tasvirlangani kabi chaqaloq yoshida emas edi. Maqsud Shayxzoda voqeani bunchalar o’zgacha tasvirlashiga sabab esa kitobxonni Sultonning qanchalar kaltabin ekanligiga ishon tirish bo’lgan, desak adashmaymiz. Chunki mamlakatda

⁴⁴ A.Muhammadjonov. O`zbekiston tarixi (7-sinf uchun darslik). T.:”Sharq”, 2017, 67-b

⁴⁵ O`sha manba, 78-b

shunday katta dushman shamoli esa boshlaganda, tilsiz yo'rgaklangan bolaga taxt topshirilishi ahmoqona qaror. Aynan shunday besarlikni Badriddinga o'xshagan munofiqlar ham poylab yurgan edi. Dramada Badriddin obraziga ham alohida to'xtalish joiz. Nasaviy asarida Badriddin Inonchxon Xorazmshoh saroyidagi yuqori martabali amirlaridan, sarkardalaridan biri ekanligi va Buxoro mudofasida turganligi bayon qilingan. Amir xonga qarshi bo'lgan totorlar bilan bo'lgan jangdan keyin qo'rquvda qumli cho'llarga qochganligi muhrlangan. Ammo dramadagi singari Sultonbeginning turmush o'rtog'i bo'lgan emas⁴⁶.

Dramadagi voqealar Nasaviy ma'lumoti bo'yicha, 619-yilgi Sind daryosi bo'yidagi jang tasviri bilan tugaydi. Jaloliddin butun xaramini daryoga cho'ktirishga buyurib, o'zi daryodan sakrab o'tish yo'li bilan najot topishi Chingizxonni hayratga soladi va hatto to'rt o'g'lining o'rniga shunday bitta mard o'g'loni bo'lishini orzulagan.

Oh koshki to'rt o'g'il o'rniga falak,
Menga birin bersa Jaloliddindek⁴⁷.

M. Shayxzoda dramaga Sultonbeginning to'yi, tabibning Temur Malik va askarlarini zaharlashga urinishi, Temur Malikning asir tushish holatlari, Yaroqbekning Jaloliddinni pichoqlashga urinish va devona chol tomonidan qutarilish voqealarini asar kompozitsiyasi uchun kiritgan. Jonli tarixni kitobxon ko'z oldida jonli gavdalan tirish uchun bunday badiiy to'qima voqealardan foydalanish yozuvchi mahoratidan darak beradi.

Xulosa qilib aytganda, XX asr she'riy dramalarida Alisher Navoiy, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Imom Buxoriy singari millatimiz tarixida munosib nom qoldirgan buyuk siymolarning badiiy obrazlari yaratilgan. SHunga ko'ra she'riy dramalarda ko'proq tarixda munosib nom qoldirgan, komillik rutbasiga erishgan mashhur tarixiy shaxslar va milliy ozodlik kurashchilari obrazi yaratilganligi kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Muhammadjonov. O'zbekiston tarixi (7-sinf uchun darslik). T.: "Sharq", 2017, 67-b
2. Ikramova A.A. (2021). Scientific and theoretical views of poetic drama in russian and uzbek literature. *World Bulletin of Management and Law*, 2(2), 51-55. Retrieved from <https://scholarexpress.net/index.php/wbml/article/view/93>

⁴⁶ O'sha manba,

⁴⁷ Maqsud Shayxzoda. Jaloliddin Manguberdi. ("Dunyo boqiy" to'plamidan). T.: "Gafur G'ulom", 1988, 379-b

3. Ikromova A.A. "The concept of pedagogical skills, its role and importance in teaching." *The American Journal of Applied sciences* 2.08 (2020): 122-126.
4. Ikromova A.M. (2016). The role of spoken language on english lessons. *International scientific journal*, 49.
5. Ikromova A.A. The concept of pedagogical skills, its role and importance in teaching // *The American Journal of Applied sciences*. – 2020. – T. 2. – №. 08. – S. 122-126.
6. Ikramova A.A. Scientific and theoretical views of poetic drama in russian and uzbek literature // *World Bulletin of Management and Law*. – 2021. – T. 2. – №. 2. – S. 51-55.
7. Ikramova A.A., & Ikramova, N. A. (2021, April). Factors affecting the development of american drama. In *E-Conference Globe* (pp. 446-451).
8. Ikramova A.A. "The genesis of drama in western and uzbek literature" *E-Conference Globe*. 2021.
9. Ikramova A.A. (2021). The place of poetic drama in the works of the english writer tomas eliot. *SENTR NAUCHNYYX PUBLIKASIY (buxdu. uz)*, 8(8).
10. Ikramova, A.A. (2022). Ingliz adabiyotshunosligida she'riy dramaga oid ilmiy nazariy qarashlar. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 426-428.
11. Ikramova Aziza Aminovna. "Ispolzovanie terminov dramy i dramaturgii v angliyskoy literature." *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes* (2022): 245-247.
12. Karimiy G'. Muqanna. Toshkent: "Abu-matbuot konsalt", 2011. B.3
13. Quronov Dilmurod. Adabiyot nazariyasi asoslari. T – 2018, 99-b
14. Muhammadjonov A. O'zbekiston tarixi. Toshkent: "SHarq", 2013. B.37
15. Maqsud Shayxzoda. Jaloliddin Manguberdi. ("Dunyo boqiy" to'plamidan). T.: "Gafur G'ulom", 1988, 389-b
16. Narshaxiy. Buxoro tarixi. Toshkent: "Fan". 2011. B.38
17. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-h/hamid-olimjon-uz/>
18. <https://xabar.uz/uz/jamiyat/muqanna-ozodlik-kurashchisimi>